TIZIMLI VASKULIT BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA QON TOMIR SISTEMASIDAGI O'ZGARISHLARNI TAQQOSLASH

Mirahmedova H.T.
Abdullayev U.S.
Karimjonova N.N.
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda tizimli vaskulit kasalligi bilan og'rigan bemorlarda suhbatlar olib borib, labarator va instrumental tekshiruvlar o'tkazib, qon tomir sistemasida qanday potologik holatlar bo'layotganligi, qanday asoratlarga olib kelayotganligi va kasallik o'rganilayotkan bemorlar ichida qanchasida qon-tomir zararlanganligini aniqlash o'rganib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Tizimli vaskulit(Behçet kasalligi), tromboz, anevrizma, MSKT*

Abstract. *This study examined patients with systemic vasculitis through interviews and laboratory and instrumental examinations to identify the pathological conditions affecting the vascular system, the resulting complications, and the prevalence of vascular damage among the study cohort.*

Keywords: *Systemic vasculitis (Behçet's disease), thrombosis, aneurysm, MSCT.*

KIRISH

TV(Behchet kasalligi) - bu noma'lum etiologiyali tizimli vaskulit bo'lib, har qanday turdagi va o'lchamdagi tomirlarning shikastlanishi bilan tavsiflanadi, og'iz bo'shlig'i va jinsiy a'zolardagi takroriy yarali jarayonlar, ko'zlar, bo'g'imlar, oshqozon-ichak trakti (GIT), markaziy asab tizimi (MNS) va boshqa organlarning shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. U surunkali kechishi bilan oldindan aytib bo'lmaydigan kuchayishlar va remissiyalar bilan birga demografik xususiyatlar, organlarning shikastlanish tabiati, qaytalanishlarning chastotasi va og'irligi, kasallikning kechishi, davolanishga javob va prognoz bo'yicha geterojenlikka ega. Kasallik prognozi nogironlikka olib kelishi va bemorning hayotiga tahdid solishi mumkinligini hisobga olib qanday holatlarda kasallik rivojlanishi, nogironlikka olib kelishi va qaysi qon tomir o'zgarishlari hayotga tahdid solishini ko'rib chiqdik.

ASOSIY QISM

Qon tomir shikastlanishlari (asosan tez-tez takrorlanadigan venoz trombozlar, Budd-Chiari sindromi, pastki kavak vena sindromi, kamroq uchraydigan - arterial trombozlar, miya venoz sinus trombozlari, yurak ichidagi tromboz); asosan erkaklarda uchraydi. TVda o'lim darajasi 9% ni tashkil qiladi va odatda markaziy asab tizimi va katta tomirlarning shikastlanishi bilan bog'liq.

Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasi Respublika revmatologiya markazida o‘tkazildi. Tadqiqotda ambulator va statsionar sharoitda davolangan 12 nafar tizimli vaskulit bilan og’rigan bemor yeg’ildi, bemorlar 2 guruhga bo’lindi 1-guruh (n=5) qon tomir sistemasi bo’yicha shikoyatlari va labarator, instrumental tekshiruvda o’zgarishlari bor bemorlar va 2-guruh (n=7) qon tomir tizimida shikoyat va o’zgarishlari yo’q bemorlarga ajratildi. Bemorlardan instrumental tekshiruvlardan MSKT tekshiruvi kontrast yordamida qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tekshiruv davomida bemordan hayotiy va kasallik anamnezi yeg’ildi, avvalo kasallik qachon nimadan keyin boshlanganligi, qon tomir sistemasidagi o’zgarishlar kasallik boshlangandan qancha vaqtdan so’ng boshlanganligi alohida inobatga olindi. Bemorlarning asosiy shikoyatlari va ayniqsa qon tomir tizimiga bog’liq shikoyatlari alohida yeg’ib olindi, bulardan: 5 nafar bemordan 2 nafarida ikkala oyoq vena qon tomirlarida varikoz kengayishlar va trombozi aniqlandi, 1 nafarida son arteriyasida trombozi aniqlandi, 1 nafarida aorta anevrizmasi, 1 nafarida ichki uyqu arteriyasi anevrizmasi aniqlandi.

	1-Bemor erkak	**2-bemor erkak**	**3-bemor erkak**	**4-bemor ayol**	**4-bemor ayol**
Shikoyatlari	Ikkala oyoqda og’riq, oyoq venalarining kengayishi, charchoq hisi, terining ko’kimtir tusga kirishi	Ko’krak qafasida og’riq, hansirash, yurak urib ketishi, bosh aylanishi	Bosh aylanishi, yurak sohasida, qorin sohasida og’riq, nafas siqishi, yurak tez urishi, umumiy holsizlik	Ikkala oyoqda og’riq, shish, og’riqning bolder sohasida kuchliroq namayon bo’lishi	Chap oyoqda og’riq, kuchsizlik belgilari, oyoq rangi oqarishi
Kasallik boshlangandan	10yildan so’ng,	7 yildan so’ng,	12 yildan so’ng,	8 yildan	6 yildan

necha yil o'tib boshlangan	davolanish choralarini muntazam olmaydi	davolanish choralarini muntazam olmaydi	davolanish choralarini muntazam olmaydi	so'ng, davolanish choralarini muntazam olmaydi	so'ng, davolanish choralarini muntazam olmaydi
Tekshiruv xulosasi	Ikkala boldir venasining varikoz kengayishi, chap pastki chuqur venalarda tromboz va venoz tromboz kengayishi.	Yuqorig a ko'tariluvchi aorta anevrizmatik kengayishi	Yuqorig a ko'tariluvchi, qorin stvoli aorta anevrizmatik kengayishi	Ikkal a son venasining varikoz kengayishi,	Chap son arteriyasida trombotik okklyuziyas i

XULOSA

Tizimli vaskulit kasalligi bilan og'rigan bemorlarning deyarli 24% dan oshiq qismida asorati havfli holatlarga olib keladigan qon tomir tizimi zararlanganligi(aorta anevrizmasi, venoz va arteriya trombozi) va qon tomir sistemasidagi o'zgarishlar asosan davo choralarini vaqtida olmagan bemorlarda, kasallik boshlangandan o'rtacha 7 yildan keyin namayon bo'layotganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Российские клинические рекомендации. Ревматология/ под ред. Е.Л. Насонова. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2017. 464 с.

2. **Алекберова З.С., Лисицына Т.А., Кудаев М.Т.** Болезнь Бехчета: монография / Издательство Перо, Махачкала 2022. – 117 стр. ISBN 978-5-00204-164-0

3. Hatemi G, Seyahi E, Fresko I, Talarico R, Uçar D, Hamuryudan V.Behçet's syndrome: one year in review 2024. Clin Exp Rheumatol. 2024; 42

4. Zeidan M.J., Saadoun D., Garrido M., Klatzmann D., Six A., Cacoub P. Behçet's disease physiopathology: a contemporary review. Autoimmun Highlights 2016; 7 (1): 4. DOI 10.1007/s13317-016-0074-1

5. Gong HB, Wu XJ, Pu XM, Kang XJ. Association of interleukin-23R gene

polymorphisms with Behçet's disease susceptibility: a meta-analysis of case-control studies. Immunol Invest 2020; 49: 648-61.

6. Alpsoy E. Behçet's disease: A comprehensive review with a focus on epidemiology, etiology and clinical features, and management of mucocutaneous lesions. J Dermatol. 2016; 43(6): 620-32. doi: 10.1111/1346-8138.13381.

7. Nakamura K, Tsunemi Y, Kaneko F and Alpsoy E Mucocutaneous Manifestations of Behçet's Disease. Front. Med. 2021; 7: 613432. doi: 10.3389/fmed.2020.613432